
MUAMMOLARNI HAL ETISH CHORALARI KO'RILDI

Bugun Qo'shtepa tumani hokimi I.Novikovning navbatdagi fuqarolar qabuli o'tkazildi. Ushbu qabul O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tumandagi Xalq qabulxonasida bo'lib o'tdi.



Unda hokim o'rinbosarlari, tuman Xalq qabulxonasi mudiri R.Abdullayev hamda aloqador idora va tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdilar.

Qabulda hokim fuqarolar bilan yuzma-yuz suhbatlashib, murojaatlarini birmalab tingladi. Ular qo'ygan muammolar bo'yicha hokim o'rinbosarlari va boshqa tegishli tashkilotlar mutasaddilari ishtirokida zarur choralar ko'rildi.



Tuman hokimi 30 nafarga yaqin fuqaroning suv va elektr ta'minoti, uy-joy, moddiy yordam, bank, sog'liqni saqlash, bandlik, tadbirkorlik va boshqa masalalarga oid murojaatlarini diqqat bilan eshitib, ularni o'z o'rnida, qo'shimcha o'rganish talab etadigan muammolarni esa qisqa fursatda hal etish choralarini ko'rdi. Ayrim murojaatlarda ko'rsatilgan masalalarni hal etish yuzasidan tuman hokimi tomonidan tegishli mutasaddilarga aniq topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2020-12-29 12:29:59

